

## **O'QUVCHILARDA NUTQIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH** **(qissalar asosida)**

*Do'stmurodova Xushnoza Jamshidovna*

*Samarqand davlat pedagogika instituti,*

*Tillar fakulteti talabasi*

*Khushnozajamshidovna@gmail.com*

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktab o'quvchilarida nutqiy kompetensiyani shakllantirishda qissa janrining metodik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Qissa orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, tanqidiy tafakkuri va ravon nutqini rivojlantirish usullari ko'rib chiqilgan. Zamonaviy interaktiv va tanqidiy tafakkur metodlari misollar bilan taqdim etilgan.*

***Kalit so'zlar:** Nutqiy kompetensiya, qissa janri, interaktiv metodlar, tanqidiy tafakkur, adabiyot darsi.*

## **РАЗВИТИЕ РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У УЧАЩИХСЯ** **(на основе рассказов)**

*Дустмуродова Хушноза Джамшидовна*

*Самаркандский государственный педагогический институт*

*студентка факультета языков*

***Аннотация.** В данной статье анализируются методические возможности жанра рассказа в формировании речевой компетенции у школьников. В рассказе рассматриваются методы развития самостоятельного мышления, критического мышления и беглой речи учащихся. Представлены примеры современных интерактивных и критических методов мышления.*

***Ключевые слова:** Речевая компетенция, жанр рассказа, интерактивные методы, критическое мышление, урок литературы*

## DEVELOPMENT OF STUDENTS' SPEECH COMPETENCE

(based on stories)

*Dustmurodova Khushnoza Jamshidovna*

*Samarkand State Pedagogical Institute,*

*Student of the Faculty of Languages,*

**Abstract.** *This article analyzes the methodological possibilities of the story genre in the formation of speech competence in schoolchildren. The story discusses methods for developing students' independent thinking, critical thinking, and fluent speech. Examples of modern interactive and critical thinking methods are presented.*

**Keywords:** *Speech competence, story genre, interactive methods, critical thinking, and literature lesson*

Mamlakatimiz prezidenti takidlaganidek; “Ta'lim-tarbiya sohasida zamonaviy va oqilona tizim yaratish, o'qitish metodlari, ta'lim standartlari, darslik va o'quv qo'llanmalarini yangilash zarur.” Mazkur fikrlarning isboti sifatida keyingi yillar mobaynida ta'limni isloh qilish maqsadida olib borilayotgan tadqiqotlar adabiyotni ham cheklab o'tayotgani yo'q. Ushbu sohada ham turli xil ilmiy izlanishlar, tadqiqotlarlar, darsliklar, maqolalar va metodlar yaratildi va hali ham yaratilmoqda. O'quvchilarga nafaqat bilim berish balki ularning nutqiy salohiyati oshirish ham muhim vazifa hisoblanadi. Darhaqiqat, bolalarda nutqiy kompetensiyani shakllantirishda kommunikativ yondashuv, interaktiv metodlar kabi ilgor tajribalar qo'llanilishi bilan birga, badiiy asarlar orqali nutqni rivojlantirish borasida ham bir qator metodlar mavjud. Shu nuqtai nazardan, qissa janri asosida nutqiy kompetensiyani shakllantirish metodikasini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-metodik masala hisoblanadi.

Kompetensiya (lotincha com'etens-munosib, mos, kerakli, biladigan, layoqatli degan ma'nolarni anglatadi. Shaxsda ma'lum bir sohada ko'nikma va tajribaning mavjudligidir. Bundan kelib chiqadiki, nutqiy kompetensiya o'quvchilarda o'qituvchi yordamida shakllantirilgan aniq, ravon va samarali nutq hisoblanadi. Nutqiy

kompetensiyani o'quvchilarga qissa o'qitish orqali rivojlantirishda turli xil metodlar mavjud. Qissalarning xalqning hayot tarziga mos bo'lishi, nafaqat yoshi kattalar balki yoshlar qatlamiga birdek etib borishi, tili sodda va ravonligi uning o'ziga xos jihatidir. Maktablarda qissa orqali nutqni rivojlantirish masalasiga to'xtalsak, avvalo, tanlangan asar o'quvchining yoshiga, intellektual saviyasiga mos bo'lishi va bolaning ruhiyatini ham inobatga olish zarur. Shu bilan bir qatorda asarni bolalarga majburiy tarzda emas ularning fikrini inobatga olgan holda tanlash lozim. Masalan, 7-sinf darsligida berilgan "Oq kema" qissasini o'quvchilarga o'qitishdan oldin asarni bolaning hayotiy tajribasi bilan bog'lash, solishtirish, bir-biriga o'xshash va farqli bo'lgan tomonlarini topish orqali bolalarda asarga bo'lgan qiziqishni uyg'otish mumkin. Qissani o'qish jarayonida bolalarda Amerika va Angliyada ommalashgan "Connect to life" (Asarni bugungi hayot bilan bog'liqligi) metodini qo'llash, masalan, "Siz asardagi boladek yolg'iz bo'lsangiz kim bilan do'st bo'lar edingiz?", "Qissadagi Mo'min chol bilan sizning bobongiz o'rtasida qanday o'xshashlik bor?" kabi savollar bilan yuzlanish bolada faqatgina asarda personajlarning xarakterini emas balki ularni o'zlarining hayoti bilan bog'lab mantiqiy nutq so'zlashishga yordam beradi.

Bundan tashqari, G'arb mamlakatlariga tegishli bo'lgan bugungi kunda har bir asarda muntazam keltiriladigan "Think critically" (Tanqidiy tafakkur) metodini orqali asar qahramonlarining tabiat bilan munosabatlarini, misol uchun, O'rozqulning qistovi bilan Mo'min cholning Shoxdor Ona bug'uni o'ldirishi irodasizligi va e'tiqodidan voz kechishi, buning oqibatida bolaning kuchli zarba olishini, shuningdek, O'rozqulning mazlum kishilar ustidan zulmkor hatti-harakatlarini o'quvchi og'zaki nutq orqali bayon qildirish nafaqat bolaning nutqiy salohiyatini balki tanqidiy fikrlash doirasini ham kengaytiradi. Unda auditoriyada o'zining shaxsiy fikrini bemalol bayon qila olish ko'nikmasi shakllanadi.

Chingiz Aytmatovning ushbu qissasi tugallanmay qolgandek, tuyuladi. Huddi shu kabi boshqa qissalarda ham bu holat kuzatilganda uni yakunlab qo'yish uchun har bir bolaning o'z dunyoqarashini inobatga olgan holda o'qituvchilardan ularga "Sizning nazaringizda ushbu qissa qanday yakun topishi kerak edi?" savoli bilan yuzlanib, har bir o'quvchining shaxsiy fikrini so'zlab berishini so'rash lozim. Bu metod orqali bolada

shaxsiy fikrini bayon qilishda ijodkorlik mahorati oshadi, uning fikri boshqalarga qiziq bo'layotganligi nutqining o'sishiga sabab bo'la oladi.

Qissa yakunlangach, boladan uni asar qay tarzda yozilgan bo'lsa shu tartibda aytib berishini talab qilish bolada hech qanday mantiqiy fikrlashni o'stirmaydi. Qissadan so'nggi tahlil jarayonida faqatgina o'quvchining undan olgan xulosasini asarning o'z va tagma'nolarni aytib berishini talab etish zarur. Aks holda faktma-fakt eslab qolingan asar voqealari adabiy metodika rivojlanishi va nutqiy salohiyatni shakllanishiga hech qanday yordam bera olmaydi.

O'quvchilar bir-birining fikrini tinglab, uni birgalikda muhokama qilishlari ham eng sara interaktiv metodlardan biri hisoblanib jamoaga nisbatan bo'lgan nutqiy madaniyatning rivojiga ham o'z hissasini qo'sha oladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, bugungi globallashuv davrida muloqot va nutq madaniyati ayrim hollarda susayib borayotgan bir paytda o'quvchilarda nutqiy kompetensiyani rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda adabiyot darslari, xususan qissa janri asosida olib boriladigan tahlil va muhokamalar o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, tanqidiy tafakkuri va ravon nutqini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois adabiyot o'qituvchilarining bu boradagi izlanishlari, zamonaviy metodlardan samarali foydalanishi alohida ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayonida zamonaviy yondashuvlar asosida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish kelajak avlodning ma'naviy va intellektual kamolotini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Zero, Yurt kelajagi yoshlar qo'lidadir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Q. Husanboyeva, R. Niyozmetova Adabiyot o'qitish metodikasi / o'quv qo'llanma -Toshkent: 2018-y.
2. Zulxumor Mirzayeva, Komil Jalilov Adabiyot o'qitish metodikasi (Annaviylikdan zamonaviylikka) - Toshkent: 2020-y.
3. Yuldosheva S. Maktabda qissa tahlili ustida ishlash . Uslubiy qo'llanma. – Samarqand: 2022-y.,